

ONA TILI FANIDA GAP BO’LAKLARINING NAZARIYASI

*Samarqand viloyati Oqdaryo tuman
55-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Abduraximova Nazokat Orziqu洛vna*

Annotatsiya: mazkur maqolada ona tili fanida mavjud bo’lgan gap bo’laklari mavzusiga oid ma’lumotlar batafsil ba`yon etilgan bo`lib, unda gap bo’laklari mavzusida ilmiy izlangan olimlarning ko’rsatgan natijalari, fikr-mulohazalari haqida so`z yuritildi.

Kalit so’zlar: kommunikativ, gap bo’laklari, subyektiv, sintagmatik, predikativ, dativ, tilshunoslik, genetiv.

Tilshunoslikda gap nutq birligidir. Shuning uchun, uning sintaktik tahlili nutq lingvistikasi qonun – qoidalari bo’yicha amalga oshirilishi kerak bo’ladi. Nutq lingvistikasi qonun-qoidalari esa endigina ilmiy asoslana boshladi. Shu sababli ular orqalisintaktik tahlilda o’z aksini topishi lozim bo’lgan gapning struktur butunligini tashkil etayotgan bevosita ishtirokchi elementlarning tildan nutqqa ko’chirilishi va bu jarayonda ularning qay tarzda sintaktik faollik olishi, sintagmatik zanjirning voqelanishidagi ulushi masalalarini izohlab bo’lmaydi.

Gap bo’laklari nazariyasiga asoslanuvchi an’anaviy sintaktik tahlilning zaif tomonlari haqida ba’zi tilshunoslar o’z fikr va mulohazalarini bildirishgan bo’lishiga qaramay, bu sohada hali keskin o’zgarishlar sodir etilganicha yo’q. Rus tilshunosi Z.D.Popova mazkur masala bobida quyidagilarni yozadi: «Традиционное учение о членах предложения содержало в себе такие противоречия, которые постоянно побуждали синтаксистов к его пересмотру». Tilshunoslikda gap nutq birligidir. Shuning uchun, uning sintaktik tahlili nutq lingvistikasi qonun – qoidalari bo’yicha amalga oshirilishi kerak bo’ladi.

Nutq lingvistikasi qonun-qoidalari esa endigina ilmiy asoslana boshladi. Shu sababli ular orqali sintaktik tahlilda o’z aksini topishi lozim bo’lgan gapning struktur butunligini tashkil etayotgan bevosita ishtirokchi elementlarning tildan nutqqa ko’chirilishi va bu jarayonda ularning qay tarzda sintaktik faollik olishi, sintagmatik zanjirning voqelanishidagi ulushi masalalarini izohlab bo’lmaydi. Z.D. Popova gap bo’laklari tushunchasiga yangicha yondashib, ularning gapda bajaradigan vazifalarini birmuncha mukammalroq va aniqroq izohlashga harakat qiladi. Olma G.A.Zolotova qo’llagan “subyektiv” va “predikativ” terminlaridan foydalaniб, gap bo’laklarini ularning vazifalariga ko’ra quyidagicha tasnif etadi. Gapning struktur sxemasiga kiruvchi gap bo’laklari. Bunga subyektivlar (ega, dativ subyektiv, genitiv subyektiv, instrumentativ subyekt va h.k.lar); predikativlar (kesim, predikativ ravish, infinitiv va

h.k.) kiradi. Gapning struktur sxemasiga kirmaydigan gap bo'laklari. Bu bo'laklar, o'z navbatida, ikkiga bo'linadi:

1. Gapning pozitsion sxemasiga kiruvchi ikkinchi darajali bo'laklar (to'ldiruvchi, hol).

2. Gapning pozitsion sxemasiga kirmaydigan ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi).

Tilshunoslarning gapning ikkinchi darajali bo'laklari haqida ham bildirishayotgan salbiy mulohazalarini kuzatamiz. Bu xususda gapirganda akademik V. Vinogradov gapning ikkinchi darajali bo'laklari masalasini tubdan qayta ko'rib chiqish kerakligini, ular grammatik tamoyillarga izchil asoslanmaganligi tufayli gap strukturasida sodir bo'ladigan jonli sintaktik aloqalarni mutlaqo sun'iy ifodalashini alohida ta'kidlagan edi. Bunday fikr Ya. I. Rosloves tadqiqotlarida ham ko'zga tashlanadi. Uning «Вопросы языкоznания» jurnalida e'lon qilingan maqolasida quyidagilarni o'qiymiz: «Традиционное учение о второстепенных членах предложения... переживает своеобразный и противоречивый кризис».

Olim masalaning bunday holatga kelib qolishining asosiy sababi mantiqiy va sintaktik kategoriyalarning, gap va hukmning, gap bo'laklari va mantiqiy hukm bo'laklarining bir-biridan keskin farqlanmayotganligida deb biladi. Tilshunoslik adabiyotlarida gap bo'laklari va ularning talabga javob bera olmayotgani haqida aytilgan fikr va mulohazalar anchagina bo'lishiga qaramay, hozirgacha bu xususda soflingvistik qonun-qoidalarga izchil asoslanuvchi biror bir konkret taklif kun tartibiga qo'yilgani yo'q. Bizningcha, buning amalga oshishi nutq lingvistikasining to'liq ilmiy asoslanishi bilan bevosita bog'liqdir. Boshqacha aytganda, gap nutq birligidir va shu bois uning sintaktik tahlili muammolarini ham nutqdan ayri holda hal etish mushkuldir. O'zbek tilida gap bo'laklarining tartibi, asosan, erkin. Ularning o`rnini almashtirish odatda grammatik holatni o`zgartirmaydi. Masalan: Oppoq bulutlar qishloq ustidan shoshilmay, toqqa qarab o`tib ketadi. (S.Ahmad). - Qishloq ustidan oppoq bulutlar shoshilmay o`tib ketadi toqqa qarab. - O`tib ketadi shoshilmay toqqa qarab oppoq bulutlar qishloq ustidan. – SHoshilmay o`tib ketadi qishoq ustidan toqqa qarab oppoq bulutlar. Mazkur gaplarda gap bo'laklarining o`rinlarini almashtirish grammatik holatni o`zgartirmagan, ammo gap mazmuniga ma'lum darajada ta'sir etgan, negaki har gal boshqa-boshqa gap bo'laklariga odatdagidan ko'proq ahamiyat berilgan. Lekin, shunga qaramay, gap bo'laklari ma'lum bir normativ tartibda joylashish xususiyatiga ega. O'zbek tilida ega, odatda, gap boshida, kesim gapning oxirida keladi. Ikkinci darajali bo'laklar esa ega va kesim orasida joylashadi. Bunday tartib, asosan, darak gaplarda bo`lib, u to`g`ri yoki normativ tartib deyiladi.

Har bir gap bo`lagiga nisbatan tartib quyidagicha bo`ladi:

I. Ega, odatda, gap boshida keladi: Kishilar mirishkor raisni qarsaklar bilan olqishladilar. (Y.Shukurov).

II. Kesim odatda gapning oxirida keladi: Bog`da etti-sakkiz tup mevali daraxt, ikki chinor, ikki tup mirzaterak o`sgan edi. (J.Abdullaxonov).

III. To`ldiruvchi odatda fe'l kesim oldida keladi. Masalan: Mashina shamoli brezentning uchini hilpiratib, chakmonning etaklarini tortqilaydi. (P.Qodirov).

IV. Hol ham asosan kesimdan keladi: Hol odatda, gap boshida, ba'zan egadan keyin, ayrim hollarda kesimdan oldin keladi. Masalan: Bugun vaxshiy tog`lar orasida u bilan yuzma-yuz keldi. (S.Ahmad).

V. Aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Agar bu tartib o`zgarsa, ularning grammatik holati ham ao`zgaradi. Agar gap bo`laklarining normativ, to`g`ri tartibi o`zgarsa, inversiya hodisasi ro`y beradi.

Inversiya hodisasi ko`proq jonli tilda va she'riyatda kuzatiladi. Inversiyada odatda gap bo`laklarining grammatik holati o`zgarmaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O`zbek tilining izohli lug`ati. 1- jild. Madvaliyev A. tahriri ostida. -T.: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 624-b.
2. Rasulov R.Umumiy tilshunoslik –Toshkent Fan. 2007. - B. 255.
3. Rasulov R. (2020). Kelajak - til sohiblariniki. Til va adabiyot ta 'limi